

**Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi**  
**Urganch davlat universiteti talabasi**

---

**O‘.HOSHIMOV HIKOYALARIDA MAVHUM OTLARNING  
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

**( INGLIZ TILI BILAN QIYOSIY )**

**Annatsiya:** Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning bir necha hikoyalaridagi mavhum otlarning lingvokulturologik xususiyatlari ingliz tili bilan qiyosiy tarzda tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** Lingvokulturologiya, milliy til, ot, mavhum otlar, lakunalar.

**Аннотация:** В данной статье в сравнительном ключе с английским языком анализируются лингвокультурные характеристики абстрактных существительных в нескольких рассказах Откира Гашимова.

**Ключевые слова:** Языкознание, национальный язык, существительное, абстрактные существительные, лакуны.

**Annotation:** In this article, the linguistic and cultural characteristics of abstract nouns in several stories of O‘tkir Hashimov are analyzed in a comparative way with the English language.

**Key words:** Linguistics, national language, noun, abstract nouns, lacunae.

---

Har bir tilda yozilayotgan asar o‘sha tilning xususiyatlari, madaniyati va urf-odatlariga tayangan holda hosil bo‘lgan leksik qatlami asosida yaratiladi. Har qanday asarga xalq madaniyatining aksi singdirilgan bo‘ladi. Xalqning madaniyati esa tildagi so‘zlar, ularning turli ma‘no nozikliklari va hatto uning grammatikasida ham namoyon bo‘ladi. Bu esa bevosita lingvomadaniyatshunosik bilan bog‘liq.

O‘tkir Hoshimov hikoyalarida mavhum otlarning keng qo‘llanilishi va ulardagi ayrim ma‘no qirralarining boshqa tillarda qanday ifodalanishi, ushbu ma‘nolarning ularda ham mavjud yoki mavjud emasligi o‘zbek tilining muhim lingvokulturologik xususiyatlaridan biridir. Xususan, ingliz tili bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, har ikkala tilning ham o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi.

Quyida O‘.Hoshimovning “Shaharlik kuyov” hikoyasidagi mavhum otlarning lingvokulturologik xususiyatlarini ingliz tili bilan qiyoslagan holda tahlilga tortamiz.

O‘tkir Hoshimovning “Shaharlik kuyov” hikoyasida bolalik, dil, farishta, bahona, omad, falokat kabi mavhum otlar qo‘llangan bo‘lib, bolalik mavhum oti ingliz tiliga boyhood, childhood, infancy deb tarjima qilinadi.

Bolalikdan tepkilashib katta bo‘lganmiz<sup>1</sup>.

Ularning eng faol qo‘llanadigani childhood so‘zidir. Asardagi bolalik so‘ziga mosi ham shu tarjima hisoblanadi. Chunki infancy so‘zi go‘daklik ma‘nosiga to‘g‘ri keladi.

---

<sup>1</sup> O‘. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: O‘qituvchi, 2017. B- 15.

We spent our childhood in a small town in the mountains. ( Biz bolaligimizni tog'lardagi kichik shaharda o'tkazganmiz.)

He was ill many times throughout his infancy. (U go'dakligida ko'p marta kasal bo'lardi.)

Shundan keyin ikkovimizning ham qulfi dilimiz ochilib ketdi<sup>2</sup>.

Shuningdek, yuqorida asardan olingan parchada qo'llangan dil so'zi ingliz tilida o'zining alohida leksemasiga ega emas, ya'ni yurak so'zi bilan bir xil tarjima qilinadi. Ammo yurak va qalb, dil so'zlarining o'rtasidafarq mavjud bo'lib, yurak so'zi aniq ot bo'lsa, qalb, dil otlari mavhum otlar hisoblanadi. Quyidagi ingliz tilida tuzilgan gaplar orqali bu yanada ochiqroq namoyon bo'ladi.

He may have heart trouble because of senility. ( Unda qarilik sababli yurak kasali bor bo'lishi mumkin.)

I love you and I mean it from the bottom of my heart. ( Men seni yaxshi ko'raman va buni chin dildan aytaman.)

Asarda qo'llangan dil so'zi ingliz tilida heart so'zining ikkinchi ma'nosini anglatgan. Demak, aslini olganda o'zbek tilida yurak va dil so'zlari alohida tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar bo'lsa-da, ingliz tilida ikkalasi ham bir xil shaklda qo'llaniladi. Bundan kelib chiqadiki, dil so'zini ingliz tilidagi lakuna deyish mumkin.

Lakuna biror xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy sharoiti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmagan so'z va so'z birikmalaridir [2.: 55.]. lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar asosan tillarning qiyosida seziladi [4.: 150.].

Lakunalarni muqobilsiz leksika tushunchasi bilan ham nomlash mumkin. Muqobilsiz leksika har qanday tilda uchraydigan hodisa bo'lib, boshqa tilga tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlarni anglatadi. Chunki bu so'z anglatayotgan tushuncha faqat shu til madaniyatigagina xos bo'lib, boshqa xalqlarda uchramaydi.

Farishtalar omin degan ekan.<sup>3</sup>

Bundan tashqari, farishta mavhum oti ingliz tiliga angel, fairy tarzida tarjima qilinadi va o'zbek tilida pari, hur, malak so'zlarini anglatadi. Asardan olingan parchadagi farishta so'zi angel tarjimasiga to'g'ri keladi. Chunki fairy so'zi ko'proq pari ma'nosida ishlatiladi. She looks like an angel. (U farishtaga o'xshaydi.)

Last night by the water he seemed to see a fairy. ( Kecha suv bo'yida uning ko'ziga pari ko'ringandek tuyuldi.)

Ishimiz ikki smenalik deb bahona qilaman<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: O'qituvchi, 2017.B- 15.

<sup>3</sup> O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: O'qituvchi, 2017. B-18.

<sup>4</sup> O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: O'qituvchi, 2017. B-18.

Hikoyada qo'llangan bahona mavhum oti ingliz tilida excuse, pretext, apology, ploy so'zlari orqali ifodalanadi. Ulardan excuse umumiyroq va faol qo'llaniladigan leksema hisoblanadi. Ploy so'zi bu ma'noda salbiy bo'yoqqa ega bo'lib, hiyla, nayrang, makr so'zlariga yaqin turadi. Shuning uchun ham, asardan olingan yuqoridagi parchadagi bahona so'zini ingliz tiliga excuse deb tarjima qilish o'rinli bo'ladi.

His excuse for forgetting her birthday was that he had lost his diary. (Uning tug'ilgan kunini unutganligi uchun uning kundalik daftarini yo'qotib qo'rganligi bahona bo'ldi.)

Laura desperately tried to think of a ploy to delay his departure. ( Laura jo'nab ketishni kechiktirish uchun nayrang (bahona) o'ylab topdi.)

**Omadim** chopib desammikin, **palakat** bosib desammikin, chet elga chiqadigan bo'pqoldim.<sup>5</sup>

Asarda omad mavhum oti ham qo'llanilgan bo'lib, bu so'z ingliz tiliga success, chance, luck, fortune so'zlari orqali tarjima qilinadi. Bu tarjimalarning har birining ma'nolarida alohida farqlar mavjud. Omad so'zi success deb tarjima qilinsa, bu so'z o'zbek tilidagi muvaffaqiyat, yutuq kabi so'zlarga yaqin bo'ladi.

Their plan will probably meet with little success. (Ehtimol, ularning rejasi kichik omadlar (muvaffaqiyatlar) bilan uchrashtiradi.)

Agar omad mavhum otini ingliz tiliga chance deb tarjima qilinsa, tasodif, tavakkal so'zlari bilan sinonim tarzda qo'llana oladi.

Chess is not a game of chance. ( Shaxmat omadning (tavakkalning) o'yini emas.

Omad so'zini ingliz tiliga luck deb tarjima qilsak esa baxt, taqdir ma'nolariga yaqin turadi.

You're in luck – there's one ticket left. ( Omadingiz (baxtingiz) bor ekan, bitta chipta qoldi.)

Agar omad so'zini fortune deb tarjima qilsak ham yuqoridagi kabi baxt so'zi anglatadigan ma'noni bildiradi.

Yuqorida qo'llanilgan falokat oti ingliz tiliga disaster deb tarjima qilinadi. U fojia, halokat, musibat, ofat so'zlariga to'g'ri keladi va shu ma'noda asardagi so'z bilan mos. Ammo falokat mavhum otining ingliz tilida accident, catastrophe, apocalypse, calamity, havoc kabi tarjimalari mavjud bo'lib, ular orasida kichik ma'no qirralarida farqlar bor. Masalan, accident ko'pincha avariya nisbatan baxtsiz hodisa, falokat degan ma'noda qo'llanadi.

Seven men were killed in a serious mining accident yesterday. ( Kecha kondagi jiddiy baxtsiz hodisadan yetti kishi halok bo'ldi.)

It would be disaster for me, If I lost my job. ( Agar men ishimni yo'qotsam, bu men uchun falokat bo'ladi.)

Har bir til o'zida mavjud so'zlarning go'zal va o'zgacha, ichki ma'no qirralarini namoyon qilishi bilan ajralib turadi. Tillardagi so'zlarning barchasi bir-birining ma'nosini to'la ochib berishi mumkin emas, buni asosan mavhum tushunchalar va insonning ichki kechinmalarini ifodalovchi

<sup>5</sup> O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: O'qituvchi, 2017. B-19.

soʻzlarda koʻrishimiz mumkin. Chunki har bir xalqda madaniyat va tarbiya shakllari turlicha. Tilimizdagi shu kabi soʻzlarni tahlilga tortish orqali, oʻzbek tiliga, oʻzbek madaniyatiga xos jihatlarni koʻrsatish mumkin. Bu tilshunosligimizning yangi yoʻnalishlaridan biri boʻlgan lingvokulturologiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Гердер И.Г. Идеи и философия истории человечества. – Москва: Наука, 1977.
2. William G., Webster A. Dictionary of the english language,explanatory, pronouncing, etymological, and synonymous. New yoeck: Entered according to Act of Congress, 1867.
3. Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022.
4. Oʻzbek tili sinonimlarining katta izohli lugʻati (2-jild). – Toshkent: Gʻ.Gʻulom, 2022.
5. 8. Oʻ. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2017.
6. <https://uz.opentran.net/ozbek-ingliz-tarjima/bolalik.html#definition>
7. <https://uz.opentran.net/ozbek-ingliz-tarjima/yurak.html>
8. <https://uz.opentran.net/ozbek-ingliz-tarjima/farishta.html>
9. <https://uz.opentran.net/ozbek-ingliz-tarjima/bahona.html>
10. <https://uz.opentran.net/ozbek-ingliz-tarjima/omad.html>
11. <https://uz.opentran.net/ozbek-ingliz-tarjima/falokat.html>